

BADIIY YOZMA TARJIMA VA UNING XUSUSIYATLARI

Nigora Israilova
ADCHTI, Nemis tili nazariyasi
va amaliyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ergashboyeva Shaxzoda
ADCHTI, Nemis tili ta’lim yo‘nalishi
2-kurs talabasi

Yaqin vaqtlargacha asarning qanday tarjima qilinganini ko‘rsatish uchun uning qanchalik “sodda” va “tushunarli” ekanligi asosiy o‘lchov birligi, mezon qilib olinar edi. Ammo endilikda bunday umumiy va mukammal ko‘rsatkich tarjima muhlislarini ham, tarjimolarning o‘zlarini qanoatlantirmaydi. Boshqacha aytganda, tarjimondan asarning umumiy va aniq mazmuni, g‘oyasini emas, yozuvchining o‘ziga xos tili va uslubini, uning badiiy mushohada formasini, kitobning tashqi va yuzaki jismi-yu, latofatini emas, balki uning asosiy bisoti, ichki harorati va badiiy xususiyatlarini to‘la-to‘kis aks ettirishni talab etiladi.

Tarjima turlari orasida badiiy tarjima ana shu xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy tarjima matnni bir tildan ikkinchi tilga shunchaki yetkazish bo‘lmay, balki uni qayta yaratish hisoblanadi. Shuning uchun badiiy tarjima – badiiy ijod sohasi, tarjimol – ijodkor demakdir. Adabiy aloqa, adabiy ta’sir va o‘zaro adabiy boyishining samaradorligi badiiy tarjima tufayli.

Badiiy tarjimaning o‘ziga xosligi badiiy adabiyotning o‘ziga xos sifatlari bilan belgilanadi. Lekin, badiiy tarjimaning ba’zi adabiyotdan farqi shundaki, unda filologik tahlil va lisoniy – uslubiy qiyosning ishtirok etishi bilan belgilanadi. Adabiy asar tili – alohida “badiiy voqelik” elementidir. Tarjimol asaridagi voqealarning badiiy tafakkur maxsul sifatida zo‘r mahorat ila tarjima qiladi.

Nemis buyuk shoiri Goethe o‘zining “Faust” asarining Jeran tomonidan qilingan fransuzcha tarjimasini o‘qib, shunday degan; “nemis tilida men “Faust” ni qayta o‘qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonga soladi va u sof, yangi va o‘tkir tuyuladi.” Demak, shoir o‘zi yozgan asarni o‘z aslida, ya’ni ona tilida emas, balki uning fransuzcha tarjimasini o‘qib, undan chukur estetik zavq olgan. Binobarin, bundan Goethe fransuz bo‘lib, “Faust”ni fransuz tilida yozganida, uni xuddi ana shunday qilib yaratgan bo‘lar edi, degan xulosa chiqarish mumkin. Zotan, badiiy tarjima xislatlaridan biri ham shundan iborat.

Tarjimani mevali daraxt niholiga qiyos qilsa bo‘ladi, chunonchi bir zaminda o‘sib turgan nihol boshqa yerga o‘tkazilganda ko‘karib, meva beradi. Jahon adabiyoti durdonalari ham tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga ko‘chirilgan, o‘sha tilning egasi bo‘lgan xalq milliy ongini o‘stiradi yangicha estetik did paydo qilishda, dunyo qarashini tarbiyalashda faol rol o‘ynaydi.

G.Belinskiy ham badiiy tarjima qilishni quydagicha talqin qilgan edi:

“Badiiy asarni tarjima qilishning bitta qoidasi bor. Tarjima qilinayotgan asarni ruhini berishdir. Buning uchun, agar, basharti, muallif rus bo‘lganida u ham asarni rus tilida xuddi shunday yozgan bo‘lar edi, deydigan qilib tarjima qilish kerak”.

Badiiy tarjima amaliyotida hozirgacha jiddiy o‘rganilmay kelayotgan muammolar juda ko‘p. Shulardan bazilarini qayd etish zarurati bor:

1. Kitobxonga tushunarli til bilan tarjima qilishi tarjimada muallif va asarning til, uslub xususiyatlarning o‘zgartirishi huquqini beradimi?
2. Aksincha, avtorning til va uslub xususiyatlarning aks ettirishi asarni xijjalab tarjima qilishi lozimligini ko‘rsatadimi?

3. Nima sababdan badiiy tarjima qilish printsiplaridan qat’iy nazar, bir asarni bir necha kishi ag’darsa, bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan bir necha xil tarjima hosil bo’ladi. Tarjimada bir yaxlit xilma-xillikga yo’l qo’yishi mumkinmi?

Badiiy adabiyot turmushni obrazlar orqali aks ettirar ekan, obrazni to’g’ri ko’rsatish va obrazlilik badiiy tarjimaning ham bosh xususiyatlaridan biri sanaladi. Biroq, bu ba’zi olimlar talqin qilgani kabi, badiiy tarjimada so’zning ahamiyati yo’q, hamma gap obrazni to’g’ri tushinishda, deb qarash uchun asos bo’lolmaydi. Chunki, so’z bilan obrazni bir-biridan ajratishi to’g’ri emas.

Badiiy tarjimada obraz va personajlarning nutq uslubini aks ettirishda so’zning ahamiyati juda katta. Shuning uchun so’zni har bir qahramonning individual xususiyatiga qarab tanlash juda muhim rol o’ynaydi.

Badiiy tarjimaning xususiyati badiiy adabiyot xususiyatidan kelib chiqadi. Badiiy asarda obrazlilik asosiy rol o’ynaganidek, uni boshqa tilga o’girganda ham asarning ana shu xususiyatiga jiddiy e’tibor qilishni talab etiladi. Binobarin, siyosiy va xususan ilmiy adabiyotlar tarjimasida qonuniyatlar, formulalar, ilmiy ta’riflar va sxemalar tilining juda aniq bo’lishiga asosiy e’tibor qilinsa, badiiy tarjimada ag’darilayotgan asarning g’oyasi, badiiy xususiyatlari, tasvirning obrazlilik va jonliligini haqqonoy aks ettirish katta rol o’ynaydi. Shu sababli siyosiy va ilmiy adabiyotlarni tarjima qilishga ixtisoslashgan kishi ko’pincha badiiy tarjima uslubiga moslasha olmaydi.

Tajriba shuni ko’rsatadiki, tarjima qilishning ana shu uch shartlariga to’la javob beradigan tarjimon ham, agar u badiiy tarjimaning asosiy maqsadini to’g’ri tushunmasa, badiiy mukammal tarjima yarata olmaydi.

K. Jukovskiy „Tarjima xuddi xotinga o’xshaydi; *to’g’ri bo’lsa – chiroyli emas, chiroyli bo’lsa – to’g’ri emas.*“ Shuning uchun bo’lsa kerak, asarning badiiy jilolarini nazardan soqit qilgan holda, uni xuddi o’ziday, „to’g’ri“ tarjima qilish orqasidan quvgan kishi, ko’pincha shu asarning quruq ko’chirmasi – kopiyasini yaratadi, xolos.

Adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Акуленко О.Л. Воссоздание авторски преобразованных фразеологизмов в переводе. Теория и практика перевода. 1982. –45-68 с.
- 2.Виноградов А.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. –М., 1978. –178 с.
3. Владимирова Н. Миллийликни таржимада акс эттириш муаммоси. Таржима санъати. –Т., 1973. –Б.153-165.
4. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Изд. 2. –М., 1986. –145 с.
- 5.Sayidmahamadovna, S.N., Saidmakhamadovna, K.U., Komiljonovna, K.G., Azimjanovna, T.O., & Ganiyevna, M.D. (2020). Ambiguities in uzbek language-syntactic homonyms. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 6542-6548.
6. Kabulova Umida Sayidmakhamadovna. Ta’limni insonparvarlashtirish to’g’risida// JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
7. Kabilova Zebiniso Muratovna. Enklitika. Fonologizatsiya. Emfatik urg’u // JOURNAL OF LANGUAGE AND LIGUISTICS ISSN (Online): 2984-7109 SJIF Impact Factor |(2023): 5.2| <https://sirpublishers.org/index.php/jolal/article/view/84>.
- 8.Kabilova Z.M. O’zbek tilining fonosemantik vositalari//Monografiya. – Toshkent, 2024.
- 9.КОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, (2), 85-99.

10. Muhtarovna, Q. N. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF GENDER LINGUISTICS RESEARCH. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(4), 987-990.

11. Muxtarovna, Q. N. (2023, October). DIE LEITMOTIVE USBEKISCHER VOLKSEPEN. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 05.10, pp. 490-492).

12. Qodirova, N. M., & Dilafruz, R. (2023). EXPRESSIONS OF COMPLIMENTS. *IMRAS*, 6(6), 185-188.

13. Qodirova, N. M., G'ulomqodirova, M., & Yunusbekova, M. (2022). NEMIS TILI NUTQ MATERIALLARI VA NUTQ FAOLIYATLARI ASOSLARINI O'RGATISH. *Conferencea*, 76-77.

14. Mukhtarovna, K. N. (2021). Compliment Conceptuality and Speech Implementation. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(11), 69-72.

15. Kadirova, N. M. (2021). THE USE OF ELEMENTS OF TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN TEACHING MONOLOGUE SPEECH FOR TEACHING GERMAN LANGUAGE. *Экономика и социум*, (5-1 (84)), 217-220.

16. ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан*, (2), 85-99.